

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.03.2024 yildagi 153-son

Kuchga kirish sanasi

26.03.2024

Qo'shimcha axborot

Ulashish

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TO'G'RISIDA"GI QONUNINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq:

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi maxsus vakolatli davlat organi va (yoki) vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari huzurida texnik reglamentlar loyihalarini, ularga doir o'zgartirish va qo'shimchalarni ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, amaldagi texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar hamda ularga oid xulosalar tayyorlash uchun tuzilishi;

yangi texnik reglament ishlab chiqilgan yoki amaldagilariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar Jahon savdo tashkilotiga (keyingi o'rinlarda — JST) a'zo davlatlar va manfaatdor tomonlarga Axborot markazi orqali tegishli axborot (xabarnoma)larni taqdim qilishi nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. JSTning Savdodagi texnik to'siqlar (keyingi o'rinlarda — STT) to'g'risidagi bitimi doirasida ma'lumot almashish va STT masalalari bo'yicha xabar berish funksiyalarini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston Standartlar instituti tuzilmasida xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida 4 ta shtat birligi ajratilgan holda, Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi (keyingi o'rinlarda — Axborot markazi) tashkil etilsin.

Axborot markaziga respublikada texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarini ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotda qo'llash bo'yicha JST kotibiyati, JSTga a'zo davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan axborot almashish bo'yicha hamkorlik qilish vazifalari yuklansin.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari JST kotibiyati va unga a'zo davlatlarni STT masalalari bo'yicha xabardor qilish va ular tomonidan kelib tushgan so'rovlarga o'z vakolati doirasida batafsil javob tayyorlashi hamda zarur ma'lumotlar bilan birga Axborot markaziga taqdim etilishini ta'minlasin.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq:

ekspert komissiyasini shakllantirishning umumiy qoidalari;

ekspert komissiyasining vazifa va huquqlari, komissiya a'zolarining majburiyatlari va javobgarligi;

ekspert komissiyasi faoliyatini tashkil etish, komissiyaning ishchi organlari vakolatlari;

ishlab chiqilgan texnik reglamentlar, ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarning loyihalarini ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha

takliflarni ko'rib chiqish tartibi;

b) Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi to'g'risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

Axborot markazi faoliyatining asosiy yo'nalishi;

JST Kotibiyatiga va boshqa manfaatdor tomonlarga xabarnomalarni tayyorlash va taqdim etish tartibi;

JSTga a'zo mamlakatlardan STT sohasida ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan yoki qabul qilingan hujjatlar to'g'risidagi xabarnomalarni qabul qilish, qayta ishlash va muhokama qilish tartibi;

JSTning STT bo'yicha xabarnomasi shakli, uni to'ldirish yo'riqnomasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [3-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [4-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A. Xodjayev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 25-mart,  
153-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-  
martdagi 153-son qaroriga  
1-ILOVA

## **Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **I bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini (keyingi o'rinlarda — ekspert komissiyasi) shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ekspert komissiyasi ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihalarini (keyingi o'rinlarda — texnik reglamentlar loyihalari) ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, amaldagi texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar hamda ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va (yoki) tegishli sohada davlat siyosatini yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o'rinlarda — vakolatli organlar) huzurida tuziladi.

3. Texnik reglamentlar loyihalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, mahsulotlar va (yoki) jarayonning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal talablar yetarli darajada belgilanganligini, ular respublikaning xalqaro majburiyatlariga muvofiqligini, moddiy-texnik bazani hamda ilmiy-texnik jihatdan rivojlantirish darajasiga muvofiqligini tahlil qilish maqsadida ekspertizaga yuboriladi.

4. Ekspert komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#), O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Ekspert komissiyasining tarkibi vakolatli organ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

#### **II bob. Ekspert komissiyasining vazifalari va huquqlari**

6. Quyidagilar ekspert komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ishlab chiqilgan texnik reglament loyihalarini ekspertizadan o'tkazish;

texnik reglamentlarni qabul qilishga asos bo'lgan holatlar yoki sabablar endilikda mavjud bo'lmasa yoxud ushbu holatlar yoki sabablarning o'zgarishi savdoga nisbatan kamroq cheklovli ta'sir ko'rsatadigan usullardan foydalanishga imkon beradigan hollarda texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

o'z vakolatlari doirasida xulosalar berish, texnik reglamentlarni tasdiqlash yoki takomillashtirishga qaytadan yuborish bo'yicha takliflar kiritish.

7. Ekspert komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazishga davlat organlari va tashkilotlari, loyihalashtirish, ilmiy-texnik va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda tadbirkorlik subyektlari mutaxassislarini jalb etish;

ishlab chiquvchi tashkilotlardan, ya'ni davlat organlari va tashkilotlaridan texnik reglamentlar loyihalari bo'yicha zarur axborotni so'rash va olish;

o'z vakolatlari doirasida tegishli vakolatli organ orqali Vazirlar Mahkamasiga texnik reglamentlarga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

texnik reglament loyihasining talablari bo'yicha tushuntirish berish uchun ishlab chiquvchilarni jalb qilish.

### **III bob. Ekspert komissiyasi a'zolarining majburiyatlari va javobgarligi**

8. Ekspert komissiyasi a'zolari:

ekspert komissiyasi ishida, qarorlar qabul qilinishida ovoz berishda qatnashishi;

ko'rib chiqish uchun kiritilayotgan texnik reglamentlarning loyihalari bo'yicha tegishli xulosalarni o'z vaqtida taqdim etishi;

ushbu Nizom talablariga rioya qilishi lozim.

9. Ekspert komissiyasi a'zolari ishlab chiqilgan texnik reglamentlar loyihalari, texnik reglamentlarga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish bo'yicha o'tkazilgan ekspertizaning to'liqligi va xolisligi, shuningdek, texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar, ular yuzasidan xulosalar tayyorlanishi hamda taqdim etilishi uchun javobgar hisoblanadilar.

### **IV bob. Ekspert komissiyasini shakllantirish**

10. Ekspert komissiyasi komissiya raisi, rais o'rinbosari, komissiya kotibi va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Ekspert komissiyasining a'zolari soni toq va komissiya raisini o'z ichiga olgan holda kamida 7 kishidan iborat bo'lishi kerak.

11. Vakolatli organning rahbari yoki rahbarning o'rinbosari ekspert komissiyasi raisi hisoblanadi.

12. Ekspert komissiyasi tarkibiga:

texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshiradigan vakolatli organlar va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari vakillari;

iqtisodiyot tarmoqlaridagi tadbirkorlik subyektlari (umumiy tarkibga nisbatan 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak), Savdo-sanoat palatasi vakillari;

loyihalashtirish, ilmiy-texnik va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda laboratoriyalar mutaxassislari kiritiladi.

13. Texnik jihatdan tartibga solish obyektining tarmoq mansubligidan kelib chiqqan holda texnik reglament ko'rib chiqilishidan manfaatdor bo'lgan:

texnik reglamentni joriy etadigan davlat organlari va tashkilotlari;

qayta ko'rib chiqilishi, o'zgartirishlar kiritilishi yoki texnik reglamentlar qabul qilinishi munosabati bilan bekor qilinishi lozim bo'lgan mahsulotga, jarayonlarga o'zaro bog'liq normativ hujjatlarni tasdiqlagan (qo'llaydigan) davlat organlari va tashkilotlari, texnik qo'mitalarning yetakchi olimlari va mutaxassislari ham ekspert komissiyasi tarkibiga kiritilishi mumkin.

14. Ekspert komissiyasi tarkibi ushbu Nizomning [12-13-bandlarida](#) ko'rsatilgan tashkilotlar taklifi bo'yicha vakolatli organning qarori bilan tasdiqlanadi.

## **V bob. Ekspert komissiyasi faoliyatini tashkil etish**

15. Ekspert komissiyasiga rais rahbarlik qiladi.

Ekspert komissiyasi raisi:

kun tartibini belgilaydi va ekspert komissiyasining majlislarini chaqiradi;

ekspert komissiyasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi bo'yicha komissiya a'zolari ishini muvofiqlashtiradi;

ekspert komissiyasining samarali ishlashini ta'minlaydi.

16. Ekspert komissiyasi majlisini rais olib boradi. Ekspert komissiyasi majlisi unda komissiya a'zolarining to'rtidan uch qismi qatnashganda huquqiy vakolatli bo'ladi. Komissiya raisi ishtirok etmagan taqdirda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi.

17. Ekspert komissiyasining kotibi etib vakolatli organning mas'ul xodimi tayinlanadi.

Kotib:

ekspertizaga kelib tushgan texnik reglament loyihalari va tegishli hujjatlar to'plamini ekspert komissiyasi a'zolariga yetkazadi;

navbatdagi majlisga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

kun tartibidagi masalalar bo'yicha ekspert komissiyasi majlislarini o'tkazish muddati va joyini, shuningdek, taklif etiluvchilarni ekspert komissiyasi raisi bilan kelishadi;

Ekspert komissiyasining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlisning o'tkaziladigan sanasi, vaqti hamda joyi haqida xabardor qiladi.

18. Uzrli sabablarga ko'ra majlisda qatnashmagan komissiya a'zolarini, ularning ovoz berish huquqsiz qatnashayotgan vakillari bilan almashtirish mumkin.

## **VI bob. Ekspert komissiyasiga hujjatlar to'plamini taqdim etish va ekspertiza o'tkazish tartibi**

19. Texnik reglament loyihalari ushbu Nizomga [1-ilovada](#) keltirilgan sxemaga asosan ekspertizadan o'tkaziladi.

20. Davlat organlari va tashkilotlari texnik reglamentlar loyihalarini vakolatli organlar huzuridagi ekspert komissiyasiga ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilarni ilova qilgan holda kiritadi:

texnik reglament yoki texnik reglamentga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi;

texnik reglamentni ishlab chiqish to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganligini tasdiqlovchi loyihani ishlab chiqish to'g'risidagi xabarnoma nusxasi;

texnik reglament loyihasi bo'yicha manfaatdor tomonlarning hamda jamoatchilik muhokamalari natijasida olingan mulohazalar haqidagi ma'lumotnoma;

texnik reglament loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish natijalari to'g'risida kelishmovchiliklar jadvali (agar mavjud bo'lsa);

qabul qilinishi texnik reglament talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan standartlar ro'yxati;

texnik reglamentda belgilangan mahsulotlar muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlarning ro'yxati;

texnik reglamentni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy va texnik tadbirlar rejasi.

21. Ekspert komissiyasi texnik reglament loyihasini ko'rib chiqish davomida qo'shimcha materiallarni, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha hisobotlarni (ishlab chiqarishni texnologik jihatdan tayyorlash natijalarini, sinash laboratoriyalari akkreditatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar) so'rashga haqli.

22. Texnik reglament loyihasi ekspert komissiyasi tomonidan uning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatiga, O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi [Qonuniga](#) va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ekspertizadan o'tkaziladi.

Texnik reglament loyihasining ekspertizasi doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

texnik reglament loyihasi sifatli ishlab chiqilganligi, asoslanganligi, dolzarbligi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi baholanadi;

mahsulotlar va (yoki) jarayonning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur minimal talablar yetarli belgilanganligi, ushbu talablar respublikaning xalqaro majburiyatlariga muvofiqligi, moddiy-texnik bazani hamda ilmiy-texnik jihatdan rivojlantirish darajasiga muvofiqligi tahlil qilinadi;

texnik reglamentni qabul qilishdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar tahlil qilinadi;

texnik reglament loyihasi texnik reglament bayoni va mazmunining to'g'riligi, ekologik norma va talablarga muvofiqligi, o'lchashlarni yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimiga muvofiqligi hamda davlat va tarmoq terminologik standartlarida belgilangan ilmiy-texnik atamalar qo'llanilishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

23. Ekspert komissiyasi a'zosi texnik reglament loyihasi olingan paytdan boshlab 15 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda ekspertiza natijalari bo'yicha o'z mulohaza va takliflarini ekspert komissiyasi kotibiga taqdim qiladi.

## **VII bob. Ekspert komissiyasi tomonidan qaror qabul qilish va uning bajarilishini tashkil etish**

24. Ekspert komissiyasi majlisida texnik reglament loyihasi yuzasidan ekspertiza natijalari asosidagi mulohaza va takliflar bo'yicha ma'lumotnomalar yoki texnik reglamentlarni bekor qilish to'g'risidagi takliflar va ular yuzasidan xulosalar ko'rib chiqiladi.

25. Texnik reglamentni ishlab chiquvchi ekspert komissiyasining yakuniy yig'ilishida ishtirok etadi. Munozarali masalalar yuzaga kelganda, ishlab chiquvchi ekspert komissiyasiga tegishli xalqaro va (yoki) mintaqaviy standartlarni, qoidalarni hisobga olgan holda ilmiy ma'lumotlarga asoslangan ma'lumotlarni taqdim etishi kerak.

26. Ekspert komissiyasi qarori majlisda ishtirok etgan komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Ekspert komissiyasi a'zosining komissiyaning qabul qilingan qaroridan farq qiladigan alohida fikri majlis bayonida aks ettiriladi yoki yozma shaklda alohida rasmiylashtiriladi hamda ekspert komissiyasi majlisi bayonining uzviy qismi hisoblanadi.

27. Ekspert komissiyasi texnik reglament loyihasi ekspertizasini yakunlab qaror qabul qilgandan so'ng ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq xulosa tayyorlaydi, unda texnik reglamentning O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, xalqaro normalar va qoidalarga muvofiqligi yuzasidan asosli xulosalar bo'lishi lozim.

28. Ekspertiza natijalari bo'yicha xulosaga ekspert komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzo (viza) qo'yiladi, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi va bir hafta muddatda komissiya a'zolariga hamda manfaatdor tomonlarga yuboriladi.

29. Ekspert komissiyasining xulosasi ijobiy bo'lgan taqdirda, texnik reglamentlar loyihalari tasdiqlash uchun belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

30. Vakolatli organlar ekspert komissiyasining yakuniy xulosasini veb-saytda e'lon qiladi, shuningdek, belgilangan tartibda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi mas'ul vakolatli davlat organi — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun taqdim etadi.

31. Texnik reglament loyihasi bo'yicha ekspert komissiyasi xulosasini berishning umumiy muddati loyiha kelib tushgan sanadan boshlab 30 kalendar kundan oshmasligi kerak.

32. Ekspert komissiyasi xulosasining asl nusxasi va unga doir materiallar vakolatli organda saqlanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish  
sohasidagi ekspert komissiyalari  
to'g'risidagi [nizomga](#)  
1-ILOVA

## **Texnik reglament loyihalarini ekspertizadan o'tkazish**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Texnik reglament loyihasini ishlab chiquvchi tashkilot	Texnik reglament loyihasini ekspert komissiyasining kotibiga taqdim etadi.	Kelib tushgan sana
2-bosqich	Ekspert komissiyasining kotibi	Komissiya a'zolariga texnik reglament loyihasini yuboradi.	Shu kunning o'zida
3-bosqich	Komissiya a'zolari	Texnik reglament loyihasi bo'yicha o'zining takliflari va mulohazalarini ekspert komissiyasi kotibiga yuboradi.	Zarur hujjatlar olingan paytdan boshlab 15 kalendar kun ichida
4-bosqich	Ekspert komissiyasining kotibi	Komissiya majlislarini o'tkazish muddati va joyini, shuningdek, taklif etiluvchilarni komissiya raisi bilan kelishadi. Komissiya a'zolari va taklif etilgan shaxslarni majlisning o'tkaziladigan sanasi, vaqti, joyi haqida xabardor qiladi.	Komissiya a'zolari taklif va mulohazalarni olganidan so'ng
5-bosqich	Ekspert komissiyasi	Ekspertiza natijalari bo'yicha xulosaga ekspert komissiyasining barcha a'zolari tomonidan viza qo'yiladi, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.	Shu kunning o'zida
6-bosqich	Ekspert komissiyasining kotibi	Ekspertiza natijalari bo'yicha xulosani komissiya a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.	Bir hafta muddatda

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi nizamga  
2-ILOVA

## Texnik reglament ekspertizasi natijalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi xulosasining shakli

(texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organining nomi)

**“Tasdiqlayman”**

Ekspert komissiyasi raisi

(F.I.O. va imzo)

Texnik reglament loyihasi, texnik reglamentlarga o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek, amal qilish muddati tugagan texnik reglamentlarni bekor qilishga doir takliflar va ular yuzasidan xulosalar bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasining 20\_\_ yil \_\_ \_\_dagi \_\_-son

**XULOSASI**

\_\_\_\_\_ rais \_\_\_\_\_ va a'zolar  
\_\_\_\_\_ lardan

(texnik reglamentning nomi)

(F.I.O.)

(F.I.O.)

iborat tarkibdagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi tomonidan Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi Ekspert komissiyalari to'g'risidagi nizom asosida \_\_\_\_\_ ekspertizasi o'tkazildi.

(texnik reglamentning nomi, texnik reglamentlarga o'zgartirish va qo'shimchalar)

Ekspertiza natijalari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1.

\_\_\_\_\_;

2.

\_\_\_\_\_;

3. ...

Izohlar:

Texnik reglament loyihasi bo'yicha mulohazalar va takliflar mavjud bo'lmagan taqdirda, texnik reglament loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni 15-moddasiga muvofiq keyinchalik tasdiqlash uchun yuboriladi.

Texnik reglament loyihasi bo'yicha mulohazalar va takliflar mavjud bo'lgan taqdirda, ularning to'liq ro'yxati keltiriladi va texnik reglament loyihasi puxta ishlash hamda Ekspert komissiyasiga takroran taqdim etish uchun ishlab chiquvchiga yuboriladi.

Komissiya a'zolari:

(F.I.O.)

(imzo)

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-  
martdagi 153-son qaroriga  
2-ILOVA

## Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi to'g'risida

### NIZOM

#### I bob. Umumiy qoidalar

1. Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi to'g'risidagi ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazining faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi (keyingi o'rinlarda — Axborot markazi) o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#), O'zbekiston Respublikasining "[Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida](#)"gi, "[Standartlashtirish to'g'risida](#)"gi, "[Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida](#)"gi qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari va ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Axborot markazi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston Standartlar instituti tuzilmasida alohida bo'linma shaklida Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda — JST) kotibiyati, JST a'zolari xalqaro va xorijiy standartlashtirish tashkilotlari hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan texnik reglamentlar, standartlar va

muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ishlab chiqish, qabul qilish va qo'llash masalalari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilish maqsadida tashkil etilgan.

4. Axborot markazi O'zbekiston Respublikasi JSTga a'zo bo'lgan paytdan boshlab, shuningdek, tegishli shartnomalar kuchga kirgandan keyin faoliyat yuritadi.

## **II bob. Axborot markazining asosiy vazifalari**

5. Quyidagilar Axborot markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) JSTga a'zo davlatlarni O'zbekiston Respublikasida xalqaro standartlarga asoslanmagan yoki mavjud xalqaro standartlardan sezilarli darajada farq qiladigan, qonuniy maqsadlarga erishish uchun zarur va JSTga a'zo boshqa davlatlar bilan tovarlar savdosiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillari ishlab chiqilayotganligi yoxud mavjud texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillariga o'zgartirishlar kiritilayotganligi to'g'risida o'z vaqtida, ularni ishlab chiqish bosqichida xabarnomalar berish orqali xabardor qilish;

b) JSTga a'zo davlatlarning axborot markazlari va boshqa manfaatdor tomonlarning barcha asoslangan so'rovlariga tegishli vakolatga ega ijro etuvchi hokimiyat va muvofiqlikni baholovchi organlar bilan hamkorlikda javob berilishini ta'minlash;

v) JSTga a'zo davlatlarning ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to'g'risidagi xabarnomalarga sharhlarini va (yoki) e'tirozlarini tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlariga ularni muhokama qilish, ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari loyihalariga zarur o'zgartirishlar kiritish uchun yuborish;

g) JSTga a'zo davlatlarning Savdodagi texnik to'siqlar (keyingi o'rinlarda — STT) sohasida rejalashtirilgan yoki qabul qilingan choralari to'g'risidagi xabarnomalarni O'zbekiston Respublikasining tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlari, korxonalar va boshqa manfaatdor tomonlarga ularning so'roviga ko'ra taqdim etish.

## **III bob. JSTga a'zo davlatlarga xabarnomalarni tayyorlash va taqdim etish tartibi**

6. Axborot markazi tomonidan xabarnomalar berish va so'rovlarga javob berish mazkur Nizomga [1-ilovadagi](#) sxemaga asosan amalga oshiriladi.

7. Axborot markazi JSTga a'zo davlatlarning texnik reglamentlarni va muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini ishlab chiqish to'g'risidagi xabarnomalarini elektron jo'natish yagona portaliga obuna bo'ladi.

8. Standartlar va texnik reglamentlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini ishlab chiqish va qabul qilishning yillik rejalari mazkur Nizomga [2-ilovadagi](#) shaklda taqdim etiladi.

9. Xabarnomalar mazkur Nizomga [3-ilovadagi](#) shaklda taqdim etiladi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin:

ishlab chiqish bosqichida bo'lgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari haqida ma'lumot;

standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilotlarga a'zolik yoki ishtirokchi ekanligi to'g'risida ma'lumot;

ishlab chiqilayotgan loyihaning yakuniy matnini yuklab olish manzili to'g'risida ma'lumot, shu jumladan, veb-sayt manzilini (havolasini) ko'rsatish;

STT bitimi qoidalarini bajarish bilan bevosita bog'liq boshqa ma'lumotlar.

10. Xabarnomada aniq bir mahsulot, mahsulotlar guruhi yoki umumiy mahsulotlarga tegishli bir yoki bir nechta texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

11. JSTga a'zo davlatlarni xabardor qilish rejalashtirilayotgan choralar to'g'risidagi xabarnomalar JST Kotibiyatiga yuborilishidan oldin Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilishi lozim.

12. Rejalashtirilgan choralar to'g'risida JST Kotibiyatiga xabarnomalar JSTga a'zo davlatlar yangi choralar loyihasi bilan tanishishi, ularni muhokama qilish va qabul qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan o'z sharhlari va (yoki) e'tirozlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun

ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida, kelishish uchun kamida 60 kun nazarda tutilgan holda jo'natilishi kerak.

13. Texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari JSTga a'zo davlatlar va mahalliy sanoat korxonalarini yangi choralarga moslashish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun ularni qabul qilish va rasmiy nashrdan so'ng 6 oy o'tgach kuchga kiritilishi lozim.

14. JSTga a'zo davlatlarning so'rovlariga javoblar, qo'shimcha ma'lumotlar ingliz tilida taqdim etilishi kerak.

Agar hujjatlar hajmi katta bo'lsa, asosiy qoidalarni ko'rsatgan holda xabardor qilinayotgan choralar mazmunini ingliz tilida berish mumkin.

15. JSTga a'zo davlatlar va manfaatdor tomonlarning so'roviga binoan hujjatlar nusxalarini taqdim etishda uning to'lov miqdori taqdim etish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlarga mutanosib bo'lishi kerak.

#### **IV bob. JSTga a'zo davlatlarning xabarnomalarini qabul qilish, qayta ishlash va muhokama qilish tartibi**

16. Axborot markazi JSTga a'zo davlatlarning STT sohasida reja qilingan yoki qabul qilingan choralari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari, korxonalarini va boshqa manfaatdor tomonlarga ularning so'roviga binoan xabarnomalar yuboradi.

17. JSTga a'zo davlatlarning xabardor qilingan choralari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlari, korxonalarini va boshqa manfaatdorlar tomonida savollar tug'ilsa, Axborot markazi JSTga a'zo tegishli davlatga so'rov yuboradi.

18. Axborot markazi JSTga a'zo davlatlardan so'rovlarga javob oladi va olingan javoblarni o'zbek tiliga tarjima qiladi hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari, korxonalarini va boshqa manfaatdor tomonlarga yuboradi.

Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha  
axborot markazi to'g'risidagi  
nizomga  
1-ILOVA

#### **Axborot markazining xabarnomalar berish va so'rovlarga javob berish**

##### SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Axborot markazi	JSTga a'zo davlatlarning xabarnomalarini elektron jo'natish portali ( <a href="https://eping.wto.org">https://eping.wto.org</a> )ga obuna bo'ladi.	O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganida
2-bosqich	Axborot markazi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Standartlar, texnik reglamentlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini ishlab chiqish va qabul qilishning yillik rejalarini taqdim etadi.	Har yil yakuni bilan (20-dekabrga qadar)
3-bosqich	Axborot markazi, texnik reglamentni ishlab chiquvchi tashkilot	Quyidagilarni ilova qilgan holda xabarnoma tayyorlaydi va yuboradi:  ishlab chiqish bosqichida bo'lgan texnik reglament va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari haqida ma'lumot;  ishlab chiqilayotgan yoki qabul qilinayotgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to'g'risida dastlabki xabarnomaga qo'shimchalar.	Ushbu hujjat loyihalari ishlab chiqilgan dastlabki bosqichlarda

4-bosqich	Axborot markazi	Xabarnomada ko'rsatilgan ishlab chiqilgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari loyihalari bo'yicha JST Kotibiyati va a'zo davlatlar tomonidan taqdim etilgan sharhlar va (yoki) e'tirozlarni qabul qiladi.	60 kun mobaynida
5-bosqich	Axborot markazi, texnik reglamentni ishlab chiquvchi tashkilot	JST Kotibiyati va unga a'zo davlatlardan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari loyihalari bo'yicha sharhlar va (yoki) e'tirozlarni tarjima qiladi va tegishli loyiha ishlab chiquvchilariga yuboradi.	Sharhlar va e'tirozlar qabul qilingan kunda

Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha  
axborot markazi to'g'risidagi  
nizomga  
2-ILOVA

### Standartlar va texnik reglamentlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini ishlab chiqish rejasi shakli

T/r	Me'yoriy hujjatning nomi va belgilanishi	Ishlab chiqish uchun asos	Taqdim etish muddati	Ishlab chiqish uchun mas'ul
1	2	3	4	5

Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha  
axborot markazi to'g'risidagi  
nizomga  
3-ILOVA

### Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha xabarnomasi shakli va uni to'ldirish

#### YO'RIQNOMASI

1.	Xabar beruvchi bitim ishtirokchisi: O'zbekiston Respublikasi
2.	Hujjat ishlab chiquvchi mas'ul organ: Mas'ul organ nomi va manzili (jumladan, telefon va faks raqami, elektron pochta manzili, veb-sayt):
3.	Xabarnoma quyidagi moddalarga muvofiq tayyorlandi: 2.9.2 [ ], 2.10.1 [ ], 5.6.2 [ ], 5.7.1 [ ], boshqalar:
4.	Tovarlarning (tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) kodlari (qo'shimcha tarzda xalqaro standartlar klassifikatori kodlari ko'rsatilishi mumkin):
5.	Hujjat nomi, qaysi tildaligi, sahifalari soni:
6.	Choralarning mazmuni tavsifi:
7.	Maqsad va asoslash, jumladan, agar zarur bo'lsa, hujjatni qabul qilish uchun yuzaga kelgan dolzarb muammo:
8.	Boshqa tegishli hujjatlar:

9.	Taxminiy qabul qilish (tasdiqlash) sanasi:  Taxminiy joriy qilish sanasi:
10.	Sharhlar taqdim etishning yakuniy sanasi:
11.	Hujjat loyihasi mavjud manzil:  [ ] Axborot markazi yoki boshqa organning manzili  aloqa uchun shaxs (I.F.O va egallagan lavozimi)  elektron pochta manzili  telefon/faks

To'g'ri to'ldirish bo'yicha qo'llanma:

**1-grafa:** har doim O'zbekiston Respublikasi ko'rsatiladi;

**2-grafa:** hujjat loyihasini ishlab chiqqan organ nomi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ushbu loyiha bo'yicha sharh, e'tiroz va savollarni ko'rib chiqish uchun tayinlangan organ yoki tashkilotning nomi ko'rsatilishi kerak (tashkilotning to'liq manzili, telefon va faks raqamlari (agar mavjud bo'lsa), uchinchi tomon so'rovlari uchun elektron pochta va rasmiy veb-sayt manzili ham ko'rsatiladi);

**3-grafa:** JSTning STT to'g'risidagi bitimi qoidalariga muvofiq tegishli hujjat loyihasi yonidagi maydonga [x] belgisi qo'yiladi:

*2.9.2 modda: texnik reglament loyihasi haqida xabarnoma;*

*2.10.1 modda: xavfsizlik, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha favqulodda vaziyat yoki dolzarb muammolar yuzaga kelish xavfi tug'ilganda qabul qilingan texnik reglament to'g'risidagi xabarnoma;*

*5.6.2-modda: muvofiqlikni baholash tartib-taomili loyihasi to'g'risidagi xabarnoma;*

*5.7.1-modda: xavfsizlik, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki milliy xavfsizlikni ta'minlashda dolzarb muammolar yuzaga kelganda yoki yuzaga kelish xavfi tug'ilganda muvofiqlikni baholash tartib-taomili to'g'risidagi xabarnoma.*

**4-grafa:** odatda erkin matn shaklida va/yoki TIF TN kodlari yoki xalqaro standartlar klassifikatori kodlari yordamida beriladigan tartibga solinadigan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Mutaxassislar va tarjimonlar uchun xabarnomalar tushunarli bo'lishi uchun tovar nomenklaturasini aniq tavsifi zarur, shuning uchun qisqartmalardan foydalanmaslik lozim.

**5-grafa:** ishlab chiqilayotgan yoki qabul qilingan texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillarining nomi, shuningdek, xabarnoma hujjatidagi sahifalar soni ko'rsatilgan. Shu bilan birga, xabarnoma hujjatlari taqdim etiladigan til(lar) ko'rsatilishi kerak, shuningdek, hujjatni tarjima qilish rejalashtirilganligi yoki tarjima qilingan qisqacha mazmuni mavjudligi qayd etilishi lozim;

**6-grafa:** taklif qilingan yoki qabul qilingan texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillarning annotatsiyasi bo'lishi kerak. Bu taklif qilinayotgan yoki qabul qilingan choraning asosiy xususiyatlarini aniq va tushunarli (xususan, agar xabarnoma berilgan hujjat JSTning rasmiy tilida bo'lmasa) tavsifi bo'lishi kerak. Bu mutaxassis va tarjimonlar tomonidan xabarnomalarni tushunish uchun muhim. Qisqartmalardan foydalanmaslik kerak;

**7-grafa:** texnik reglament yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillari loyihasining maqsadi va asosiga bag'ishlangan, jumladan, shoshilinch sabablar tavsifi (agar mavjud bo'lsa). Texnik reglamentlar uchun STT bitimi 2.2-moddasiga, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari uchun STT bitimi 5.4-moddasi yo'nalishida bo'lishi lozim. Misollar: aholi hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy xavfsizlikni ta'minlash va boshqalar.

Tavsiyalar 6-qatorda keltirilganlari bilan bir xilda. Texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillari bir emas, bir nechta qonuniy maqsadlarni nazarda tutishi mumkin, bunday holda barcha tegishli qonuniy maqsadlar ko'rsatilishi kerak;

**8-grafa:** quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) xabarnoma e'lon qilingan nashr/veb-sayt nomi, jumladan, sana va raqam;
- 2) hujjat qabul qilinganidan keyin joylashtiriladigan nashr/veb-sayt nomi;

- 3) tegishli xalqaro standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga havola;
- 4) agar hujjatni taqdim etish uchun to'lov belgilangan bo'lsa, to'lov miqdori.

### **9-grafa:**

1) texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillari qabul qilinishi kutilayotgan sana;

2) STT bitimining 2.12 va 5.9-moddalari qoidalariga muvofiq texnik reglamentlar yoki muvofiqlikni baholash tartib-taomillari kuchga kirishining kutilayotgan sanasi;

**10-grafa:** JSTga a'zo davlatlar STT bitimining 2.9.4; 2.10.3; 3.1. moddalariga muvofiq sharh berishi mumkin bo'lgan sana. Bunda aniq sana belgilanishi lozim. STT bitimining qoidalariga ko'ra sharhlarni topshirish muddati 60 kun.

**11-grafa:** Agar matn Axborot markazida mavjud bo'lsa, unda tegishli maydonga [ x ] belgisi qo'yilishi kerak. Agar matnni boshqa organdan olish mumkin bo'lsa, ushbu organ bilan aloqa ma'lumotlarini (ya'ni, aloqa qiladigan shaxs, elektron pochta, telefon, pochta manzili va veb-sayt manzili) ko'rsatish kerak. Tegishli xabarnoma yuborilgan texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-taomillari matnlariga kirishni yanada osonlashtirish uchun veb-sayt manzilini ko'rsatish tavsiya etiladi, u yerdan a'zolar xabardor qilingan choraning to'liq matnini yoki matnga tez va oson kirish uchun foydalaniladigan boshqa manbalarni yuklab olish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-  
martdagi 153-son qaroriga  
3-ILOVA

## **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Vazirlar Mahkamasining "Bolalar o'yinchoqlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2020-yil 24-iyundagi 451-son qarorida:

a) qaror nomidagi, 1, 3 va 4-bandlardagi, qarorga ilova nomidagi "umumiy" so'zi chiqarib tashlansin;

b) qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning 1-bandidagi "umumiy" va "(keyingi o'rinlarda — Texnik reglament)" so'zlari chiqarib tashlansin;

v) qarorga ilovaning to'rtinchi bobi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

### **"4-bob. Muvofiqligini tasdiqlash**

68. Bolalar o'yinchoqlari erkin muomalaga chiqarilishidan oldin mazkur texnik reglament talablariga muvofiqligi tasdiqlanishi lozim.

Bolalar o'yinchoqlarining muvofiqligini tasdiqlash sertifikatlashtirish shaklida amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish organlari tomonidan 1s, 2s 3s sertifikatlashtirish sxemalarini qo'llagan holda sertifikatlashtirish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish uchun sinashlar Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinash laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan bolalar o'yinchoqlari xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro'yxatidagi hujjatlar qo'llanmagan hollarda yoki ushbu hujjatlar bo'lmaganda, bolalar o'yinchoqlarining muvofiqligi ushbu texnik reglamentni 68-bandining b) kichik bandiga asosan (1s, 2s, 3s sxemalar) tasdiqlanadi.

Seriyali ishlab chiqarilgan bolalar o'yinchoqlarini sertifikatlashtirish 1s, 2s sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish uchun bolalar o'yinchoqlari namunalari sertifikatlashtirish organi yoki uning vakolatli vakili tomonidan tanlanadi. Bolalar o'yinchoqlari partiyasini sertifikatlashtirish 3s sxema bo'yicha amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bolalar o'yinchoqlari partiyasi import qiluvchi yoki ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelingunga qadar sertifikatlashtiriladi.

Sertifikatlash uchun bolalar o'yinchoqlari namunalari sertifikatlashtirish organi tomonidan tanlanadi.

a) Bolalar o'yinchoqlarini sertifikatlashtirishda (1s, 2s, 3s sxemalar) ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, import qiluvchi sertifikatlashtirish organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarish uchun foydalanilgan hujjatlar (1s, 2s sxemalar);

bolalar o'yinchoqlarining rangli tasvirdagi namunalari;

bolalar o'yinchoqlarining konstruktorlik yoki texnik xususiyatlari berilgan hujjatlar nusxasi;

xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar, shuningdek, ularni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar;

foydalanish bo'yicha hujjatlari (agar mavjud bo'lsa);

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan bolalar o'yinchoqlari xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlar;

bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarishga sifat menejment tizimi joriy qilinganligini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikatini (2s sxema);

shartnoma (yetkazib berish shartnomasi) yoki jo'natish hujjatlari (bolalar o'yinchoqlar partiyasi uchun) (2s sxema).

Sertifikatlashtirish organi:

bolalar o'yinchoqlarini identifikatsiya qiladi;

texnik reglament talablarini qo'llash va bajarish hamda mahsulotning muvofiqligini baholash (tasdiqlash) uchun zarur namunalarni tanlash qoidalarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tekshirishni tashkil qiladi va sinov bayonnomalarini tahlil qiladi.

Ishlab chiqarish holatini tahlil qiladi (1s sxema).

Seriyali ishlab chiqarilgan bolalar o'yinchoqlari uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati 5 yilga, bolalar o'yinchoqlari partiyasi uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati cheklanmagan vaqtga beriladi.

Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchini vakolatli vakili), import qiluvchi:

bolalar o'yinchoqlari tamg'asiga muvofiqlik belgisini joylashtiradi;

muvofiqligi tasdiqlangandan so'ng quyidagi hujjatlarni shakllantiradi:

ushbu texnik reglamentning 68-bandi a) kichik bandida keltirilgan hujjatlarni;

sinash bayonnomalarini;

ishlab chiqarish holatining tahlili natijalarini;

muvofiqlik sertifikatini.

Sertifikatlashtirish organi sertifikatlangan bolalar o'yinchoqlari ustidan inspeksiya nazoratini quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiradi:

namunalarni belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida (markazda) sinovdan o'tkazish va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish (1s sxema);

namunalarni belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida (markazda) sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarish obyektni sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirgan sertifikatlashtirish organi tomonidan o'tkazilgan inspeksiya nazorati natijalarini tahlil qilish (2s sxema).

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan bolalar o'yinchoqlari xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan standartlashtirishga doir hamda mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o'lchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga

solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxatidagi hujjatlar qo'llanilmagan hollarda yoki ushbu hujjatlar bo'lmaganda (1s, 2s, 3s sxemalar):

ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), import qiluvchi bolalar o'yinchoqlari ushbu texnik reglamentning xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlar to'plamini sertifikatlashtirish organiga taqdim etadi:

bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarishda foydalanilgan hujjat (1s, 2s sxemalar);

bolalar o'yinchoqlarining rangli tasvirdagi namunalari;

bolalar o'yinchoqlarining konstruktorlik yoki texnik xususiyatlari berilgan hujjatlar nusxasi;

foydalanish bo'yicha hujjatlar (agar mavjud bo'lsa);

xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar, shuningdek, ularni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar (1s, 2s sxemalar);

ushbu texnik reglamentning xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi qabul qilingan texnik yechimlarning tavsifi va xatarlarni baholash hujjatlari;

bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarishga sifat menejment tizimi joriy qilinganligini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikatini (2s sxema);

shartnoma (yetkazib berish shartnomasi) yoki jo'natish hujjatlari (bolalar o'yinchoqlar partiyasi uchun) (3s sxema).

69. Sertifikatlashtirish organi:

Bolalar o'yinchoqlarini identifikatsiya qiladi;

bolalar o'yinchoqlarini mazkur texnik reglament talablariga muvofiqligi yuzasidan sertifikatlashtiradi. Bunda sertifikatlashtirish organi:

ushbu texnik reglamentning xavfsizlik talablaridan kelib chiqib, sertifikatlashtirilayotgan bolalar o'yinchoqlari uchun aniq xavfsizlik talablarini aniqlaydi;

ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan ushbu texnik reglamentlarning xavfsizlik talablari bajarilishini tasdiqlovchi qabul qilingan texnik yechimlarni tahlil qilish va xatarlarni baholashni amalga oshiradi;

o'yinchoqlarning muvofiqligini tasdiqlash uchun Texnik reglament talablarini qo'llash va bajarish hamda mahsulotning muvofiqligini baholash (tasdiqlash) uchun zarur bo'lgan namunalarni tanlash qoidalarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxatidan ushbu belgilangan aniq xavfsizlik talablarini aniqlash uchun sinov usullari standartlarini aniqlaydi;

sinovlar o'tkazilishini tashkil etadi va sinash bayonnomalarini tahlil qiladi;

ishlab chiqarish holatini tahlil qiladi (1s sxema).

Seriyali ishlab chiqarilgan bolalar o'yinchoqlari uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati 5 yilga, bolalar o'yinchoqlari partiyasi uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilishi cheklanmagan muddatga beriladi.

Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), import qiluvchi:

bolalar o'yinchoqlari tamg'asiga muvofiqlik belgisini joylashtiradi;

muvofiqligi tasdiqlangandan so'ng quyidagi hujjatlarni shakllantiradi:

ushbu texnik reglamentning 69-bandida keltirilgan hujjatlarni;

sinash bayonnomalarini;

ishlab chiqarish holati tahlili natijalarini;

muvofiqlik sertifikatini.

Sertifikatlashtirish organi sertifikatlangan bolalar o'yinchoqlari ustidan inspeksiya nazoratini quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiradi:

namunalarni belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida (markazda) sinovdan o'tkazish va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish (1s sxema);

namunalarni belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida (markazda) sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarish obyektni sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirgan sertifikatlashtirish organi tomonidan o'tkazilgan audit natijalarini tahlil qilish (2s sxema).

70. Bolalar o'yinchoqlariga tegishli hujjatlar to'plami ishlab chiqaruvchilar tomonidan bolalar o'yinchoqlarining ishlab chiqarilishi to'xtatilgan (bekor qilingan) kundan, bolalar o'yinchoqlarini import qiluvchilar tomonidan so'nggi mahsulot sotilgan kundan boshlab kamida 10 yil davomida saqlanishi kerak".

2. Vazirlar Mahkamasining "Mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2022-yil 1-martdagi 91-son qarorida qaror [nomidagi, 1, 3 va 5-bandlardagi](#), qarorga ilovalar [nomidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning [1-bandidagi](#) "umumiy" so'zi chiqarib tashlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining "Yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'in o'chirish vositalariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2022-yil 28-sentabrdagi 536-son qarorida qaror [nomidagi, 1-bandidagi](#), qarorga ilova [nomidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning [1-bandidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentga ilova [nomidagi](#) "umumiy" so'zi chiqarib tashlansin.

4. Vazirlar Mahkamasining "Foydalanishga topshiriladigan harakatdagi temir yo'l tarkibi xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2022-yil 28-sentabrdagi 537-son qarorida qaror [nomidagi, 1 va 4-bandlaridagi](#), qarorga ilovalar [nomidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning [1-bandidagi](#), qarorga [ikkinchi ilova](#) birinchi bosqichining chora-tadbirlar ustunidagi "umumiy" so'zi chiqarib tashlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26 dekabdagi 886-sonli qaroriga asosan 5-bandning o'z kuchini yo'qotish sanasi — 2025-yil 25-iyun — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 09/24/886/1078-son)*

6. Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 28-dekabdagi 726-son [qarorida](#):

a) qaror [nomidagi, 1-bandidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning [nomidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning 1-bobi [birinchi paragrafidagi](#), qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning 43-bandi [sakkizinchi xatboshisidagi](#) "umumiy" so'zi chiqarib tashlansin.

b) qarorga ilova bilan tasdiqlangan texnik reglamentning 1-bandi [uchinchi xatboshisi](#) chiqarib tashlansin.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-  
martdagi 153-son qaroriga  
4-ILOVA

## **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan qarorlari ro'yxati**

1. Vazirlar Mahkamasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari haqida"gi 2010-yil 10-maydagi 86-son [qarori](#).

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2016-yil 8-sentabrdagi 289-son qaroriga [ilova](#).

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2020-yil 16-yanvardagi 30-son qaroriga 2-ilovaning [5-bandi](#).

4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risidagi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2022-yil 11-martdagi 114-son qaroriga 3-ilovaning [5-bandi](#).

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2024-y., 09/24/153/0241-son; 28.12.2024-y., 09/24/886/1078-son)*



Tezkor va qulay  
onlayn mikroqarz

100 mln

COMPACT

Kredit foizi: 26%-30% gacha  
Kredit muddati: 2-48 oygacha

